



QO'QON XONLIGI TA'LIM TIZIMI TARIXSHUNOSLIGI (MUSTAQILLIK DAVRI TARIXSHUNOSLIGI MISOLIDA)

Yakobjanov J.J.

Nizomiy nomidagi TDPU

XX asrning 90 yillarida jahon xaritasida sodir bo'lgan o'zgarishlar nafaqat, dunyo geosiyosiy jarayonlariga balki, mustaqillikni qo'lga kiritgan davlatlar ilm-fanida ham katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, yurtimiz ilm-faniga ham ushbu davrdan yangi yondashuvlar kirib keldi. Eng muhimi ushbu yondashuvlarda tadqiqot jarayonlarida xolislik hamda ob'ektivlik nuqtai-nazaridan tadqiq etish ustuvor vazifa etib belgildi.

Mustaqillikkacha yaratilgan adabiyotlar mavjud davr siyosiy ruhida yozilgan bo'lib, o'quvchining haqqoniy va ob'ektiv tarixiy voqelikni anglashida chalg'itib qo'yari edi. Zamonaviy tadqiqotlar natijasida o'quvchilarda nafaqat haqqoniy tarixiy jarayonlarni bilish, balki milliy o'zlikni anglash tushunchalari shakllantirildi.

Bizga ma'lumki, O'rta Osiyo xonliklarida ta'lismi, madaniy hayot, ijtimoiy munosabatlar va hatto davlatchilik masalalari ham islam dini ta'sirida shakllangan edi.

O'zbekiston mustaqillik yillarida Qo'qon xonligining ta'limi tizimi, ta'lim muassasalari va ularning faoliyati xususida bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, M.O.Alihojiyev, I.Alimov, S.Boltaboyev, H.Bobobekov, B.M.Babadjanov, Sh.Vohidov, Sh.T.Qo'ldoshev, O'.Sultonov, G.S.Isaboyeva, T.D.Xudoyqulovlarning tadqiqotlarini keltirish mumkin².

XIX asr boshlarida Qo'qon xonligida ilmiy, madaniy-adabiy muhitning shakllanishi va rivojlanishida bevosita maktab va madrasalarning o'rni ahamiyatga molikdir. Ular xalqni ma'rifatli qilish, an'anaviy ta'limni va madaniy-ma'naviy hayotni yuksaltirishda katta rol o'ynagan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'rta Osiyo xonliklarida bo'lgani kabi Qo'qon xonligi madaniy hayotida ham islam dini muhim o'rinn tutgan. Islam dini mahalliy xalq ijtimoiy-madaniy hayoti, kundalik maishiy turmushi, ayniqsa, ta'lim-tarbiya sohasida sezilib turgan.

² Алихожиев М.О. Кўқон хонлигининг маданий ҳаётида мактаб ва мадрасаларнинг тутган ўрни (1709-1876). Тарих фан. номз. автр...Тошкент: 2012, 22 б.; Алимов И. Кўқон хонлиги мактаб ва мадрасалар тарихи. Тошкент: Фан. 2017. 301 б.; Болтабоев С.Д. XIX асрнинг 2-ярми XX аср бошларида Туркистон ўлкасида вақф мулклари. Тарих фан. номз. ...дисс. Тошкент: ЎзР ФА ТИ, 1995. 158 б.; Бобоеков Ҳ. Кўқон тарихи. – Тошкент: Фан, 1996. 240 б.; Ўша муаллиф: История Коканда. Тошкент: Фан, 2006. 244 с.; Бабаджанов Б.М Кокандское ханство - власт, политика, религия. Токио-Ташкент. "Yangi nashr" 2010. С 744.; Вохидов Ш. Об истории амир Умархана Фазли Фаргани. // Преподование языка и литературы, 1997. № 3. С. 78-84.; Кўлдошев Ш.Т. Кўқон хонлиги ва Шарқий Туркистон ўртасидаги сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқалар (XVIII-XIX асрнинг ўрталари): Тарих фан. номз. ...дисс. – Тошкент: ЎзР ФА ТИ, 2009. 169 б.; Султонов У.А. Мухаммад Солиххўжа ва унинг "Тарихи жадидайи Тошканд асари" мухим тарихий манба сифатида. Тарих фан. номз... дисс. Тошкент: ЎзР ФА ТИ 2007. 173 б.; Исабоева Г.С. XIX асрда Кўқон хонлигига маданий ҳаёт: Тарих фан. номз. ...дисс. Тошкент: Ўз МУ, 2010. 184 б.; Худойкулов Т.Д. XIX асрда Кўқон хонлигининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти: Тарих фан. номз. ...дисс. Тошкент: Ўз МУ, 2009. 172 б.



M.Alihojiev o'zining tadqiqotida Qo'qon xonligi hukmronligi yillarida mamlakat shahar va qishloqlarida 400 ga yaqin katta-kichik madrasalar bo'lganligi, ulardan Qo'qon, Toshkent, Marg'ilon, Xo'jand, O'ratega kabi yirik shaharlarda 20 tadan 50 tagacha, Namangan, O'sh, Chust, Shahrixon, Asaka, To'raqo'rg'on qatori kichik shaharlarda esa 3-10 ta atrofida madrasalar to'g'ri kelishini hamda qishloq madrasalari, asosan, aholisi ko'p qishloq markazlarida, odatda, 1-2 ta bo'lganligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga u boshlang'ich ta'lif beruvchi oddiy uslubdagi maktablar esa xonlik davrida deyarli barcha masjidlar qoshida ishlab turganligini qayd etadi³.

Qo'qon xonligining maktab va madrasalari to'g'risida tadqiqot olib borgan I.Alimov esa o'zining tadqiqotida 1887 yilda Farg'ona viloyati boshqarmasiga vaqf hujjatlarini topshirgan madrasalar ro'yxatini keltirgan. Unga ko'ra, madrasalar soni ko'pligi jihatdan, birinchi o'rinda 66 ta madrasasi bo'lgan Namangan viloyati, ikkinchi o'rinda Qo'qon mulki 58 ta madrasasi bilan, uchinchi o'rinda esa Marg'ilon viloyati 49 ta madrasasi bilan joy egallagan. Andijon viloyati 39 ta madrasasi bilan to'rtinchi, Toshkent viloyati 29 ta madrasasi bilan beshinchi, O'sh viloyati 13 madrasasi bilan oltinchi o'rinda bo'lgan. Toshkent viloyati, Toshkent shahri madrasalari boshqa viloyatlarnikiga nisbatan oz bo'lishiga qaramay bir qismi yirik va mashhur madrasalar bo'lganligini ta'kidlaydi⁴.

Ushbu asar tadqiq etilgan masalaning ancha batafsil yoritilgani, arxiv ma'lumotlaridan keng foydalanilganligi hamda boshqa qimmatli ma'lumotlar keltirilganligi bilan ajralib turadi.

Xonlikda bunyod etilgan madrasalarning qanchalik mashhurligi va dongdorligi ularda tahsil olayotgan talabalar soni va ta'lif-tarbiya berayotgan mudarrislar bilan belgilangan. Madrasalarda mudarrislarning hurmati yuqori bo'lib, ulardag'i turli xil masalalar ichki kengashlar orqali hal etishgan.

Qo'qon xonligida ta'lif tizimi oilalarda boshlanib, keyinchalik maktab va madrasalarda davom etgan. Ota - onalar odatda ta'lif berish 6 - 7 yoshdan boshlanib, o'g'il bolalar masjidlarda, qiz bolalar esa uyda otinoyilarning qo'lida ta'lif-tarbiya olishgan. Ushbu haqda G.Isaboyeva arxiv ma'lumotlariga tayangan holda o'zining nomzodlik dissertatsiyasida shunday deydi, - "Qo'qon shahrida bir necha o'quv muassasalari: madrasalar, maktablar, daloilxonalar va qorixonalar mavjud edi. Maktablar machitlar qoshida va xususiy uylarda tashkil etilgan. Xonlik tugatilishi arafasida 261 ta musulmon masjidlari, ular qoshida 149 ta maktabxona mavjud bo'lgan. Xonlar o'rdasida xonzoda va zodagonlarning bolalarini o'qitish uchun maxsus maktablar, bundan tashqari o'ziga to'q oilalar uchun oddiy maktablarga qaraganda sharoiti yaxshi bo'lgan maktablar ham bor edi. 12 ta xususiy uylarda tashkil etilgan maktablardan 4 tasi Sulton Murodxonga qarashli bo'lgan"⁵.

³ Алихожиев М.О. Кўқон хонлигининг маданий ҳаётида мактаб ва мадрасаларнинг тутган ўрни (1709-1876). Тарих фан. номз. авт...Тошкент: 2012, 22 б

⁴ Алимов И. Кўқон хонлиги мактаб ва мадрасалар тарихи. Тошкент: Фан. 2017. 11 – б.

⁵ Исабоеева Г.С. XIX асрда Кўқон хонлигига маданий ҳаёт: Тарих фан. номз. ...дисс. Тошкент: Ўз МУ, 2010. 52-53 – б.



Xonlikda ta'lif tizimi ikki: quyi (maktab) va oliy (madrasa) bosqichda olib borilgan. O'z navbatida maktablar ham ikki turga bo'lingan: birinchisi, quyi maktab bo'lib, masjidlarda faoliyat yuritgan. Ikkinchisi yuqori maktablar, faqat shaharlarda, katta qishloqlarda faoliyat yuritgan. Aksariyat tadqiqotchilar maktablarning faoliyat xarakteriga ko'ra jamoat, xususiy, shahar va qishloq maktablariga bo'lganlar. Madrasalarda ta'lif uch bosqichda tashkil etilib, adno (quyi), avsat (o'rta) va a'lo (yuqori) bosqichlarida olib borilgan. Ushbu bosqichlarda o'qish muddati qat'iy belgilanmagan. O'qish muddati ko'proq talabaning qobiliyatiga bog'liq bo'lgan. Bitiruvchilar qozilik va devonxona lavozimlariga da'vogar bo'lsa, imtihon qilinib, so'ng nomzodlik guvohnomasi berilgan.

T. Xudoyqulov esa o'zining tadqiqotida xonlikdagi ta'lif tizimi haqida quyidagilarni ta'kidlaydi: "Aksari maktablar mahalla masjidlari qoshida ochilgan bo'lib, alohida xususiy maktablar ham mavjud bo'lgan. XIX asr o'rtalarida Qo'qon xonligida 350 taga yaqin maktablar faoliyat ko'rsatgan. Maktablar shahar va qishloqlardagi masjidlar yonida faoliyat yuritib, ularning asosiy vazifasi bolalarga boshlang'ich bilimlar berishdan iborat edi. Maktablarda yetti yil davomida bolalarga, ularning tushunish-tushunmasligidan qat'i nazar, alifbe, Qur'on, abjad, farzi ayn, Chahorkitob, Xo'ja Hofiz, Sa'diy she'rlari, So'fi Allohyor va Mirzo Bedil asarlaridan savod o'rgatilishi lozim edi"⁶.

Oliy ta'lif bosqichi - madrasalar haqida esa u shunday yozadi:- "O'smirlar 13-15 yoshdan boshlab madrasada o'qiy boshlaganlar. Madrasalarda o'qish muddati 15-20 yil bo'lib, madrasa ta'limi aniq bir yo'nalish va reja asosida olib borilmagan. Madrasada 15-20 yil davomida talabalarga 137 dan ortiq o'quv fani yoki kitoblar o'qitilgan. Fanlardan Qur'on qiroati ilmi (retitatsiya, tajvid), "Kalom ilmi", "Hadis ilmi", "Fikh ilmi", "Payg'ambarlar tarixi", falsafa, arab tili grammatikasi, mantiq, notiqlik ilmi (ritorika), islom aqodi, meros va boylik taqsimoti, savdo-sotiq munosabatlari uchun "Faroz ilmi" (matematikaning 4 amali hajmida) va yuqoridagi ilmlarga oid kitoblar, nazm va nasrda bitilgan asarlar o'qitilgan"⁷.

Masjid va madrasalarda o'quvchi va talabalarga ta'lif-tarbiya berilishi bilan birga, ularni mehnat orqali hayotga tayyorlash ham yo'lga qo'yilgan.

G.Isaboyeva o'zining nomzodlik dissertatsiyasida oliy ta'lif tizimi - madrasalar faoliyatiga to'xtalar ekan shunday deydi, - "Madrasalarda o'qish bir haftada 4 kun, ya'ni shanba, yakshanba, dushanba, seshanba kunlari bo'lgan. Qolgan uch kunda, ya'ni chorshanba, payshanba va juma kunlari mutolaa bilan shug'ullanib, olingan saboqlar takrorlangan. Odatda, har bir mudarrisga 4 tadan 10 nafargacha talaba birkitilgan. Madrasalarda o'qish muddati 8 yilga mo'ljallangan... Talabalar ona tilidan tashqari, fors va arab tilini mukammal egallaganlar. O'quv yili oxirida esa maxsus imtixonlardan o'tishgan. Madrasalarda tartib.-intizomga ham alohida diqqat qaratilgan. Madrasa

⁶ Худойкулов Т.Д. XIX асрда Кўкон хонлигининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий хаёти: Тарих фан. номз. ...дисс. Тошкент: Ўз МУ, 2009. 130 - 6.

⁷ Худойкулов Т.Д. XIX асрда Кўкон хонлигининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий хаёти: Тарих фан. номз. ...дисс. Тошкент: Ўз МУ, 2009. 131 - 6.



nizomini buzgan talabaga uch marta ogohlantirish berilgan. U yana intizomni buzsa, madrasadan chetlashtirilgan”⁸.

Yuqorida keltirilgan ikki tadqiqotching madrasalardagi o'qish muddati haqidagi ikki xil ma'lumotidan chalg'imaslik maqsadida shuni aytish kerakki, madrasalarda o'qish muddati har bir bosqich uchun belgilangan asarlarni qanday o'zlashtirganiga qarab bosqichdan bosqichga o'tkazilgan. Odatda bir bosqichda 3-4 yil o'qilgan. Ba'zan turli sabablarga 10 yillab bir bosqichda qolib ketgan talabalar ham bo'lgan.

Ma'lumotlaridan ko'rindiki, xonlikda ta'lim tizimi diniy bilimlar asosiga qurilgan bo'lib, unda asosan madaniy va ma'rifiy muhitni yaxshilash, insonni ma'naviy hamda axloqiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash asosiylar o'rinda turgan. Shu sababli nafaqat xonlikda, balki butun O'rta Osiyo o'sha davrda fan-texnika taraqqiyoti jihatidan bir muncha ortda qolib ketdi.

⁸ Исабоева Г.С. XIX асрда Қўқон хонлигига маданий ҳаёт: Тарих фан. номз. ...дисс. Тошкент: Ўз МУ, 2010. 57 – б.